“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=382

2026-yil
8-son
avgust
ISSN 3093-8546

# Davlat xizmatlarini koʻrsatishda inson huquqlarini ta'minlash boʻyicha nazariy yondashuvlar tahlili

*Dilfuza Xabibullayeva,*
*Oʻzbekiston Respublikasi Inson huquqlari boʻyicha milliy markazi*
*mustaqil tadqiqotchisi (PhD*
*e-mail: xabibullayeva.dilfuza@mail.ru*

***Аннотация.*** Ushbu maqolada davlat xizmatlarini koʻrsatish jarayonida inson huquqlarini ta'minlash muammosi nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy yuridik fan va xalqaro amaliyotda shakllangan beshta asosiy ilmiy yondashuvni: me'yoriy-kafolatli, ma'muriy-protsessual, insonga yoʻnaltirilgan xizmat koʻrsatish, inson huquqlariga asoslangan hamda raqamli-axborot-huquqiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qiladi. Tadqiqotda har bir yondashuvning nazariy asoslari, uni rivojlantirgan olimlarning ilmiy qarashlari hamda ularning davlat xizmatlari sohasidagi amaliy ahamiyati koʻrib chiqiladi. Maqolada shuningdek Oʻzbekiston Respublikasining ushbu sohadagi milliy tajribasi ham tahlil qilinadi. Muallif davlat xizmatlarini koʻrsatishda inson huquqlarini ta'minlashning kompleks, koʻp qatlamli tushuncha ekanligini asoslab, unga oid ta'rifini taklif etadi.

***Калит сўзлар.*** davlat xizmatlari, inson huquqlari, huquqiy kafolatlar, ma'muriy protsedura, insonga yoʻnaltirilgan yondashuv, raqamli transformatsiya, inson huquqlariga asoslangan yondashuv, shaffoflik

***Аннотация.*** В данной статье проводится теоретико-правовой анализ проблемы обеспечения прав человека в процессе оказания государственных услуг. Автор осуществляет сравнительный анализ пяти основных научных подходов, сложившихся в современной юридической науке и международной практике: нормативно-гарантийного, административно-процессуального, клиентоориентированного, основанного на правах человека, а также цифрового и информационно-правового подходов. В исследовании рассматриваются теоретические основы каждого подхода, научные взгляды разработавших их ученых, а также их практическое значение для сферы государственных услуг. В статье также анализируется национальный опыт Республики Узбекистан в данной сфере. Автор обосновывает комплексный, многоуровневый характер понятия обеспечения прав человека при оказании государственных услуг и предлагает собственное определение данной категории.

***Ключевые слова.*** государственные услуги, права человека, правовые гарантии, административная процедура, клиентоориентированный

подход, цифровая трансформация, подход, основанный на правах человека, прозрачность

***Annotation.*** This article provides a theoretical and legal analysis of the problem of ensuring human rights in the process of public service delivery. The author conducts a comparative analysis of five major scientific approaches that have emerged in contemporary legal scholarship and international practice: the normative-guarantee approach, the administrative-procedural approach, the human-centered service approach, the human rights-based approach, and the digital and information-legal approach. The study examines the theoretical foundations of each approach, the scholarly views of the researchers who developed them, and their practical significance for the sphere of public services. The article also analyzes the national experience of the Republic of Uzbekistan in this field. The author substantiates the complex, multi-layered nature of the concept of ensuring human rights in public service delivery and proposes an original definition of this category.

***Keywords.*** public services, human rights, legal guarantees, administrative procedure, human-centered approach, digital transformation, human rights-based approach, transparency

Zamonaviy yuridik fanda davlat xizmatlarini koʻrsatishda inson huquqlarini ta'minlashni oddiy ma'muriy xizmat koʻrsatish sifatida emas, balki insonning oʻz huquqlaridan real, teng va xavfsiz foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan davlatning kompleks ommaviy-huquqiy faoliyati sifatida koʻrib chiqish lozim. Xususiy huquqiy xizmatdan farqli oʻlaroq, davlat xizmati boshqaruv-tashkiliy tabiatga ega boʻlib, fuqaro bozorning teng huquqli subyektiga emas, balki ommaviy vakolatlarga ega boʻlgan davlatga murojaat qiladi. Shu sababli, davlat xizmatining sifati shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari: murojaat qilish, axborot olish, ijtimoiy ta'minot, tadbirkorlik faoliyati, ta'lim olish, yuridik ahamiyatga ega faktlarni royxatga olish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va odil sudlovdan foydalanish huquqlarini amalga oshirish imkoniyatiga bevosita ta'sir koʻrsatadi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi, elektron hukumat tizimlarining rivojlanishi va aholiga koʻrsatiladigan xizmatlarning ommaviylashuvi sharoitida inson huquqlarini ta'minlash mexanizmlari yangicha nazariy asoslashni talab qilmoqda. Davlat xizmatlari sohasidagi huquqiy tadqiqotlarda ushbu muammoga turlicha yondashuvlar mavjud boʻlib, ular orasida yagona umume'tirof etilgan nazariy model shakllanmagan. Bu esa mazkur sohada tizimli ilmiy tahlil oʻtkazish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning maqsadi davlat xizmatlarini koʻrsatishda inson huquqlarini ta'minlashga oid zamonaviy nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ushbu yondashuvlar asosida kompleks tushunchani

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

shakllantirishdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, formal-yuridik hamda mantiqiy umumlashtirish usullari tashkil etadi. Ushbu usullar yordamida xalqaro va milliy huquq doktrinasida shakllangan nazariy qarashlar oʻzaro qiyoslanib, ularning umumiy va oʻziga xos jihatlari aniqlanadi.

Yuqoridagilarga asosan davlat xizmatlari koʻrsatishda inson huquqlarini taʼminlash boʻyicha tadqiqotimiz natijalarini beshta yondashuvga tasniflagan holda koʻrishimiz mumkin.

***Meʼyoriy-kafolatli yondashuv***

Birinchi yondashuvni “meʼyoriy-kafolatli yondashuv” deb atash maqsadga muvofiq. Unga koʻra, inson huquqlarini taʼminlash deganda konstitutsiya, qonunlar va qonun osti hujjatlarida mustahkamlangan yuridik kafolatlar tizimining davlat xizmatlarini koʻrsatish sohasida inson huquqlarini taʼminlashdagi ahamiyati tushuniladi.

Ushbu yondashuvning nazariy asoslari S. Alekseyev, N.I.Matuzov, A. Malko, L. Voyevodin, B. Topornin, G. Yellinek va G. Kelzenlar tomonidan yaratilgan. Zamonaviy doktrinada ushbu yondashuvni A. Malko, P. Rabinovich, L. Ferrayoli, D. Feldman, K. MakKrudden, shuningdek, maʼmuriy-protsessual kafolatlar tadqiqotchilari R. Shapoval, E. Kolomoyes va O. Brusakovalar rivojlantiradilar. Ushbu yoʻnalish vakillari inson huquqlarini taʼminlashni davlat bilan oʻzaro munosabatlarda shaxs huquqlarini amalga oshirish, muhofaza qilish va himoya qilishni taʼminlovchi, qonunchilikda mustahkamlangan yuridik kafolatlar, tartib-taomillar va huquqiy mexanizmlar tizimi sifatida koʻrib chiqadilar. Davlat xizmatlari sohasida ushbu yondashuv davlat xizmatining oʻzini inson va fuqaroning huquqiy kafolatlarini amalga oshirish shakllaridan biri sifatida koʻrib chiqish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ushbu yondashuv zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham yanada rivojlantirildi. Xususan, Y. Xazov inson huquqlarini taʼminlashni yuridik kafolatlar tizimi va ularni amalga oshirish mexanizmlari orqali koʻrib chiqib, shaxs huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish usullarini meʼyoriy jihatdan mustahkamlash zarurligini taʼkidlagan [1]. Xuddi shunday fikrni M. Shayxullin ham qoʻllab-quvvatlaydi, u inson huquqlarini himoya qilish samaradorligini huquqiy tartibga solishning barqarorligini va ommaviy hokimiyatni cheklashni taʼminlovchi konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlarning amal qilishi bilan bogʻlaydi [2]. Shuningdek, A. Stankin kafolatlarni inson va fuqaro huquq va erkinliklarini taʼminlash mexanizmining mustaqil elementi sifatida tadqiq etadi [3].

Bizningcha, ushbu yondashuvning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u davlat xizmatlarini koʻrsatish jarayonini shaxsning konstitutsiyaviy huquqlaridan kelib chiqqan holda baholash imkonini beradi. Davlat xizmatlarini koʻrsatish sohasidagi meʼyoriy huquqiy hujjatlarni rivojlanib borayotgan jamiyat tendensiyalaridan kelib chiqib, inson huquqlarining buzilishiga olib kelishga zamin

yaratuvchi salbiy omillarni hisobga olgan holda doimiy ravishda inventarizatsiyadan o‘tkazilishi hamda takomillashtirilib borilishi inson huquqlarining va uning qonuniy manfaatlarining ta'minlanishiga mustahkam kafolat yaratilishiga yordam beradi. Shu bilan birga, faqat me'yoriy kafolatlarning mavjudligi ularning amalda samarali qo‘llanilishini avtomatik ravishda ta'minlamaydi, bu esa navbatdagi yondashuvning ahamiyatini belgilaydi.

***Ma'muriy-protsessual yondashuv***

Ikkinchi ilmiy yondashuvni “ma'muriy-protsessual yondashuv” sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Uning mohiyati shundaki, inson huquqlari nafaqat xizmatning yakuniy natijasi, balki uni taqdim etishning butun jarayoni bilan ta'minlanadi. Ushbu yondashuv e'tiborni natijadan jarayonga qaratishi bilan muhimdir. Jumladan, inson huquqi jarayon shaffof bo‘lmagan, haddan tashqari murakkab yoki kamsituvchi bo‘lganidayoq buziladi.

Ma'muriy-protsessual yondashuv ma'muriy huquq va inson huquqlari bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda rivojlantirilgan. Jumladan, R. Shapoval, E. Kolomoyes va O. Brusakovalar ma'muriy-protsessual kafolatlarni davlat bilan o‘zaro munosabatlarda shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash mexanizmi sifatida ta'riflaydilar [4]. T.Sever, I.Rakar va P.Kovach ma'muriy tartib-taomillarni “davlat-fuqaro” munosabatlarida insonning fundamental huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida ko‘rib chiqadilar [5]. X.Ponse shaxs huquqlarini ta'minlashni tegishli boshqaruv tamoyilini amalga oshirish va insonning adolatli ma'muriy qarorga bo‘lgan huquqi bilan bog‘laydi [6]. M. Kobzar-Frolova va A. Bejensev ma'muriy tartib-taomillarga fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishning mustaqil kafolati sifatida qaraydilar [7].

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlarini inobatga olgan holda shuni ta'kidlash joizki, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda inson huquqlarining buzilishi holatlarining birlamchi ko‘rinishi sifatida ma'muriy tartib-taomillarga amal qilmaslik holatini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq xizmat natijasiga ko‘ra sodir etilgan qonunbuzilishni esa inson huquqlarining buzilishi holatlarining ikkilamchi ko‘rinishi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Bunday farqlash amaliy ahamiyatga ega, chunki u nazorat va monitoring organlariga huquqbuzarlikning kelib chiqish bosqichini aniqlash hamda profilaktik chora-tadbirlarni to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi.

***Insonga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish yondashuvi***

Uchinchi ilmiy yondashuv sifatida “insonga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish yondashuvi”ni ko‘rishimiz mumkin. Uning asosida davlat xizmatlari davlat organining qulayligidan emas, balki foydalanuvchining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda loyihalashtirilishi kerakligi g‘oyasi yotadi. Xalqaro amaliyotda bunday yondashuv accessibility, user-centricity, transparency, life-event services tushunchalari orqali ifodalanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Fikrimizcha, ushbu yondashuv davlat xizmatlarini koʻrsatishda inson huquqlarini ta'minlashning asosiy gʻoyasi va mohiyatini oʻzida aks ettiradi. Demak, davlat xizmatlari nafaqat davlat tashkilotlarining, balki uning foydalanuvchilarining talab, zaruriyat va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda loyihalashtirilishi hamda tadbiq etilishi lozim. Jamiyat hayotida foydalanilmaydigan hamda zaruriyat mavjud boʻlmagan xizmatlarni tadbiq qilishning ahamiyati mavjud emas degan xulosaga kelish mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, insonga yoʻnaltirilgan xizmat koʻrsatish gʻoyasi zamonaviy davlatlarning “one-stop-shop” (yagona darcha) tamoyiliga asoslangan xizmat koʻrsatish markazlarini tashkil etishida yaqqol namoyon boʻlmoqda. Bunday markazlar fuqaroning turli davlat organlariga alohida-alohida murojaat qilish zaruriyatini bartaraf etib, xizmatlardan foydalanishni soddalashtiradi hamda korrupsiyaviy omillarni kamaytiradi. Shu tariqa, insonga yoʻnaltirilganlik nafaqat gʻoyaviy, balki institutsional darajada ham amalga oshiriladi.

**Inson huquqlariga asoslangan yondashuv**

Toʻrtinchi ilmiy yondashuv “inson huquqlariga asoslangan (Human Rights-Based Approach) yondashuv” doirasida fuqaro xizmatdan passiv foydalanuvchi sifatida emas, balki huquqlar tashuvchisi, davlat tashkiloti esa majburiyatlar tashuvchisi sifatida qaraladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi tomonidan ishlab chiqilgan “Human Rights-Based Approach to Development Programming: HRBA Toolkit” amaliy qoʻllanmasiga koʻra, inson huquqlariga asoslangan yondashuv inson huquqlari tamoyillarini siyosat va rivojlanish dasturlarida tenglik, kamsitmaslik, ishtirok etish, hisobdorlik va huquq egalarining imkoniyatlarini kengaytirishga integratsiya qilishga qaratilgan[8]. Davlat xizmatlariga nisbatan bu shuni anglatadiki, xizmat koʻrsatish tizimi aholining zaif guruhlariga: nogironlar, keksalar, kam ta'minlanganlar, chekka hududlarda yashovchilar, raqamli savodxonlik darajasi past boʻlgan shaxslarga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerak. Shuning uchun raqamlashtirish oʻz-oʻzidan inson huquqlarining kafolati emas: agar elektron xizmat aholining bir qismi uchun mavjud boʻlmasa, u ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin.

Ushbu yondashuvning eng mashhur zamonaviy tadqiqotchilaridan biri Uolter Singingler ta'kidlashicha, ushbu yondashuvning asosiy xususiyati e'tiborni aholi ehtiyojlarini qondirishdan shaxsning qonuniy tan olingan huquqlarini amalga oshirishga qaratishdir [9]. Bundan tashqari, yondashuvning rivojlanishiga Morten Broberg va Hans-Otto Sano sezilarli hissa qoʻshgan. Ularning fikricha inson huquqlari yondashuvining uchta asosiy tamoyilini ajratib koʻrsatish mumkin: ishtirok etish va qamrab olish (participation and inclusion), tenglik va kamsitmaslik (equality and non-discrimination), davlat organlarining hisobdorligi (accountability).

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Tadqiqotchilarning fikricha, aynan ushbu elementlar insonning rasman mustahkamlangan huquqlarini real amalga oshiriladigan huquqlarga aylantirish imkonini beradi [10].

Ushbu fikrni rivojlantirib, Paul Nelson va Ellen Dorsey inson huquqlarini himoya qilish yondashuvi davlat boshqaruvi mantigʻining oʻzini oʻzgartirishni talab qilishini ta'kidlagan. Ularning ilmiy ishlarida inson huquqlari davlat siyosatini, shu jumladan davlat xizmatlari sohasini shakllantirishning asosi boʻlishi kerakligini ta'kidlaydilar. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, ushbu yondashuvning asosiy vazifasi inson huquqlarini amalga oshirishga toʻsqinlik qiluvchi tengsizlik va kamsitishning tarkibiy sabablarini bartaraf etishdan iborat [11].

Fikrimizcha, davlat faoliyatining samaradorligi koʻrsatilgan xizmatlar soni bilan emas, balki inson huquqlarini ta'minlash va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish darajasi bilan baholanishi lozim. Bu yondashuv, ayniqsa, ijtimoiy himoya, sogʻliqni saqlash va ta'lim sohalaridagi davlat xizmatlarini isloh qilishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi, chunki u davlat organlarini statistik koʻrsatkichlardan koʻra fuqarolarning haqiqiy ehtiyojlariga e'tibor qaratishga undaydi.

***Raqamli va axborot-huquqiy yondashuv***

Beshinchi ilmiy yondashuv “raqamli va axborot-huquqiy yondashuv” hisoblanadi. Uning shakllanishi davlat boshqaruvini keng koʻlamli raqamlashtirish, elektron hukumat, idoralararo ma'lumotlar almashinuvi, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va qaror qabul qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini rivojlantirish bilan bogʻliq. Ushbu yondashuv doirasida inson huquqlarini ta'minlash axborot texnologiyalari, davlat xizmatlaridan raqamli foydalanish imkoniyati, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi va shaxsning raqamli huquqlari prizmasi orqali koʻrib chiqiladi.

X. Margets va P. Danlivi Raqamli davr boshqaruvi (“Digital Era Governance”) kontseptsiyasi doirasida raqamli yondashuvni rivojlantirishga katta hissa qoʻshgan. Ularning ta'kidlashicha, davlatning raqamli transformatsiyasi boshqaruvning an'anaviy byurokratik modelidan voz kechishni va insonning hayotiy ehtiyojlariga yoʻnaltirilgan integratsiyalashgan raqamli xizmatlarga oʻtishni talab etadi. Ularning fikricha, davlat xizmatlari fuqaroning davlat bilan hamkorligining qulayligi, tezkorligi va shaffofligini ta'minlaydigan yagona raqamli platformalar orqali koʻrsatilishi kerak [12].

Shuni ta'kidlash lozimki, raqamli yondashuvning ijobiy jihatlari qatorida uning salbiy ta'sirlarini ham inobatga olish zarur. Xususan, algoritmik qarorlar qabul qilish tizimlarining shaffof emasligi, shaxsiy ma'lumotlarning notoʻgʻri ishlatilishi xavfi hamda raqamli tafovut (digital divide) natijasida aholining ma'lum qatlamlari davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatidan mahrum boʻlishi mumkinligi ushbu yondashuvning e'tibor qaratishi lozim boʻlgan muammoli jihatlaridir. Shu sababli, raqamli-axborot-huquqiy yondashuv doirasida “raqamli inklyuziya” tamoyili alohida ahamiyat

kasb etadi, u davlat xizmatlarining raqamli shakllari bilan bir qatorda an'anaviy (oflayn) shakllarining ham saqlanib qolishini taqozo etadi.

**O‘zbekiston tajribasi**

O‘zbekistonda davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan institutsional islohotlar faol amalga oshirilmoqda. Davlat xizmatlari markazlarining “yagona darcha” tamoyili asosida faoliyat yuritishi, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining joriy etilishi hamda elektron hukumat tizimining rivojlantirilishi yuqorida ko‘rib chiqilgan insonga yo‘naltirilgan va raqamli-axborot-huquqiy yondashuvlarning milliy amaliyotda o‘z ifodasini topganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, milliy amaliyotda davlat xizmatlari sifatini baholashning yagona mezonlari, fuqarolarning huquqlari buzilishi holatlarida murojaat qilish mexanizmlarining samaradorligi hamda raqamli xizmatlardan foydalanishda aholining zaif qatlamlari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash masalalari yanada takomillashtirishni talab qiladi. Xususan, qishloq joylarida va chekka hududlarda yashovchi fuqarolarning raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek davlat xizmati ko‘rsatuvchi mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytiruvchi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Yuqorida tahlil qilingan xorijiy ilmiy yondashuvlarning milliy huquqiy tizim xususiyatlarini hisobga olgan holda ijodiy qo‘llanishi ushbu vazifalarni hal etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, davlat xizmatlari sohasida inson huquqlarini ta'minlashni aniqlash bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni kompleks kontseptsiyaga birlashtirish mumkin. Yuqorida ko‘rib chiqilgan beshta yondashuvning o‘zaro nisbati 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Me'yoriy-kafolatli yondashuv huquqiy asosni, ma'muriy-protsessual yondashuv jarayonni, insonga yo‘naltirilgan yondashuv xizmatning sifatini, inson huquqlariga asoslangan yondashuv aksiologik yo‘nalishni, raqamli-axborot-huquqiy yondashuv esa texnologik jihatni belgilaydi. Ushbu yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi davlat xizmatlarini ko‘rsatishda inson huquqlarini ta'minlashning yaxlit nazariy modelini shakllantirish uchun zarur asos yaratadi.

Demak, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda inson huquqlarini ta'minlash, bu, har bir foydalanuvchi davlat organlari va boshqa vakolatli subyektlarga murojaat qilish orqali huquqlarini vaqtida, teng, xavfsiz va asossiz to‘siqlarsiz amalga oshirishiga qaratilgan me'yoriy, institutsional, protsessual, tashkiliy va raqamli kafolatlar tizimidir.

Ilmiy nuqtayi nazardan, ushbu tushuncha “xizmat ko‘rsatish” tushunchasidan kengroq, chunki u protseduraning qonuniyligi, mavjudligi, sifati, axborotni himoya qilish, shikoyat qilish imkoniyati, mansabdor shaxslarning mas'uliyati va davlatning huquq egasi sifatida insonga yo‘naltirilganligini o‘z ichiga oladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Inson huquqlarini ta'minlash, davlat xizmatlarining mohiyati, shuningdek, davlat boshqaruvini raqamlashtirishning zamonaviy tendensiyalarini tushunishga oid doktrinal yondashuvlar tahlili shuni koʻrsatadiki, ilmiy adabiyotlarda “davlat xizmatlarini koʻrsatishda inson huquqlarini ta'minlash” tushunchasining yagona umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Aksariyat tadqiqotchilar ushbu toifani inson huquqlarini ta'minlash mexanizmining alohida elementlari: huquqiy kafolatlar tizimi, davlat organlari faoliyati, ma'muriy tartib-taomillar, xizmatlardan foydalanish imkoniyati yoki foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish orqali koʻrib chiqadilar. Shu bilan birga, zamonaviy davlat xizmatlarining kompleks xususiyati oʻrganilayotgan hodisani kengroq tushunishni talab qiladi.

An'anaga koʻra, yuridik fanda inson huquqlarini ta'minlash davlat va jamiyatning shaxs huquq va erkinliklarini amalga oshirish, muhofaza qilish va himoya qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasidagi faoliyati sifatida qaraladi. Biroq davlat xizmatlari sohasiga nisbatan ushbu tushuncha aniqlashtirishga zaruriyat mavjud. Chunki davlat xizmati davlatning ommaviy funksiyalarini amalga oshirishning alohida shakli boʻlib, uning doirasida fuqaro va davlat organining bevosita oʻzaro hamkorligi sodir boʻladi. Aynan davlat xizmatidan foydalanish jarayonida inson oʻzining konstitutsiyaviy huquqlari amalda royobga chiqishiga duch keladi, bunday xizmatning sifati esa shaxsning davlatda himoyalanganligining real darajasi koʻrsatkichiga aylanadi.

Davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasi sharoitida davlat xizmatlari sohasida inson huquqlarini ta'minlash mazmuni sezilarli darajada kengaymoqda. Ilgari asosiy e'tibor mansabdor shaxslar harakatlarining qonuniyligi va ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishiga qaratilgan boʻlsa, bugungi kunda xizmatlarning raqamli qulayligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, axborot xavfsizligi, qaror qabul qilish algoritmlarining shaffofligi va raqamli kamsitishlarning oldini olish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demak, davlat xizmatlarini koʻrsatishda inson huquqlarini ta'minlash nafaqat yuridik va tashkiliy, balki shaxs huquqlarini amalga oshirishning texnologik kafolatlarini ham qamrab olishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatlarini koʻrsatishda inson huquqlarini ta'minlash muammosi kelgusida ham huquq fanining dolzarb yoʻnalishlaridan biri boʻlib qoladi. Bizningcha, ushbu sohada keyingi tadqiqotlar yuqorida koʻrib chiqilgan beshta yondashuvni oʻzaro uygʻunlashtirgan, milliy huquqiy tizimning oʻziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan yaxlit nazariy modelni ishlab chiqishga qaratilishi lozim. Bunday model davlat xizmatlari sifatini baholashning aniq mezonlarini belgilash, fuqarolarning huquqlari buzilishining oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish hamda davlat organlari faoliyatining insonga yoʻnaltirilganligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.** Хазов Евгений Николаевич, Хазова Виктория Евгеньевна Юридические гарантии прав и свобод человека и гражданина и механизм их реализации // Вестник Московского университета МВД России. 2017. №5. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yuridicheskie-garantii-prav-i-svobod-cheloveka-i-grazhdanina-i-mehanizm-ih-realizatsii (дата обращения: 01.06.2026).

**2.** Шайхуллин, М.С. (2025). О значимости конституционно-правовых гарантий в защите прав и свобод человека и гражданина: On the importance of constitutional and legal guarantees in protection human and civil rights and freedoms. Право и государственность. 22-27. 10.70569/2949-5725.2025.6.1.003.

**3.** Станкин А. Н., Шайхуллин М. С. Гарантии защиты прав и свобод человека и гражданина // Право и государственность. 2025. №2 (7). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/garantii-zaschity-prav-i-svobod-cheloveka-i-grazhdanina (дата обращения: 01.06.2026).

**4.** Roman Volodymyrovych Shapoval, Etiana Olexsandrivna Kolomoiets, Oksana Valeriivna Brusakova & Mikayil Vagif oglu Garayev. Definition, signs and types of administrative and procedural guarantees: Established views and the need for their modernization. DIXI, vol. 23, n°. 2, julio-diciembre 2021, 1-13. DOI: https://doi.org/10.16925/2357-5891.2021.02.05.

**5.** URL:https://www.researchgate.net/publication/276425736_Protecting_Human_Rights_Through_Fundamental_Principles_of_Administrative_Procedures_in_Eastern_Europe

**6.** Ponce, Juli (2005) "Good Administration and Administrative Procedures", Indiana Journal of Global Legal Studies: Vol. 12: Iss. 2, Article 10. Available at: https://www.repository.law.indiana.edu/ijgls/vol12/iss2/10

**7.** Кобзарь-Фролова М. Н. Понятия «процесс» и «процедуры» в трудах классиков российского административного права: актуальность и современность модели // Сибирское юридическое обозрение. 2021. Т. 18, № 3. С. 252–260. https://doi.org/10.19073/2658-7602-2021-18-3-252-260

**8.** UNDP. Human Rights-Based Approach to Development Programming: HRBA Toolkit.

**9.** URL:https://www.researchgate.net/publication/372008334_Human_Rights_Based_Approach

**10.** Broberg, M., & Sano, H. O. (2018). Strengths and weaknesses in a human rights-based approach to international development – an analysis of a rights-based approach to development assistance based on practical experiences. The International Journal of Human Rights, 22(5), 664–680. https://doi.org/10.1080/13642987.2017.1408591

**11.** URL:https://www.researchgate.net/publication/372008334_Human_Rights_Based_Approach

**12.** Authors: Barcevičius, E., Cibaitė, G., Codagnone, C., Gineikytė, V., Klimavičiūtė, L., Liva, G., Matulevič, L., Misuraca, G., Vanini, I., Editor: Misuraca, G., Exploring Digital Government transformation

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

in the EU - Analysis of the state of the art and review of literature, EUR 29987 EN, Publications Office of the European Union, Luxembourg, 2019, ISBN 978-92-76-13299-8, doi:10.2760/17207, JRC118857.